


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLODI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLIVAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ismailov Azizbek Madaminovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida ichki audit xizmatining iqtisodiy mazmuni, genezisi va korporativ boshqaruv tizimidagi o'rni tadqiq etilgan. Xalqaro institutlar, milliy me'yoriy hujjatlar va olimlar tomonidan berilgan ta'riflar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy belgilari hamda bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirmaslik bilan bog'liq kamchiliklari aniqlangan. Ichki auditning ta'minot (assurance) va maslahat (consulting) funksiyalari birligini, «uch chiziq» modelidagi mustaqil maqomini hamda bank qiymatini himoya qilish va oshirish xususiyatini yaxlit ifodalovchi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan asoslangan. Taklif etilgan yondashuvning bank tizimini transformatsiya qilish va xususiyashtirish sharoitidagi amaliy ahamiyati rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, tijorat banki, ta'minot funksiyasi, maslahat funksiyasi, «uch chiziq» modeli, korporativ boshqaruv, kuzatuv kengashi, audit qo'mitasi, bank qiymati, Ichki auditning global standartlari.

Abstract. This article examines the economic substance, evolution, and role of the internal audit function in the corporate governance system of commercial banks. Definitions proposed by international institutions, national regulatory documents, and scholars are comparatively analysed to identify their common features and limitations in fully reflecting the specific characteristics of banking activities. The article develops and theoretically substantiates an author's definition that comprehensively integrates the assurance and consulting functions of internal audit, its independent status within the Three Lines Model, and its role in protecting and enhancing bank value. The practical relevance of the proposed approach in the context of banking system transformation and privatisation is demonstrated using official statistical data.

Keywords: internal audit, commercial bank, assurance function, consulting function, Three Lines Model, corporate governance, supervisory board, audit committee, bank value, Global Internal Audit Standards.

Аннотация. В статье исследуются экономическое содержание, генезис и роль службы внутреннего аудита в системе корпоративного управления коммерческих банков. Проведён сравнительный анализ определений, предложенных международными институтами, национальными нормативными документами и учёными, в результате которого выявлены их общие признаки и недостатки, связанные с неполным отражением специфических особенностей банковской деятельности. Разработано и научно обосновано авторское определение, комплексно отражающее единство гарантийной (assurance) и консультационной (consulting) функций внутреннего аудита, его независимый статус в модели «трёх линий», а также его роль в защите и повышении стоимости банка. Практическая значимость предложенного подхода в условиях трансформации и приватизации банковской системы продемонстрирована на основе официальных статистических данных.

Ключевые слова: внутренний аудит, коммерческий банк, гарантийная функция, консультационная функция, модель «трёх линий», корпоративное управление, наблюдательный совет, аудиторский комитет, стоимость банка, Глобальные стандарты внутреннего аудита.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni doirasida davlat ulushidagi banklarni transformatsiya qilish va xususiyashtirish, bank xizmatlarini jadal raqamlashtirish hamda korporativ boshqaruvni xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2]. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimining jami aktivlari 2021-yil oxiridagi 419 trln so'mdan 2026-yil 1-may holatiga 962,8 trln so'mga yetib, besh yilga yaqin davr ichida 2,3 barobardan ziyod o'sdi [22]. Faoliyat ko'lamining bunday kengayishi, operatsiyalar tarkibining murakkablashuvi va masofaviy xizmat kanallarining jadal rivojlanishi banklarda ichki nazorat va ichki audit institutiga bo'lgan talabni obyektiv ravishda kuchaytirmoqda.

Ayni paytda ichki audit kasbining xalqaro me'yoriy asosi ham tub yangilanishni boshdan kechirdi: 2025-yil 9-yanvardan Ichki auditning global standartlari kuchga kirdi va ular ichki auditning vazifasini tashkilotning qiymat yaratishi va uni asrashiga, boshqaruv organining samarali nazorat qila olishiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash

sifatida yangicha talqin etdi [5]. Milliy darajada O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrda O'RQ-580-son «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni [1] hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-aprelda 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan «Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizom [3] ichki audit xizmatining maqomi, mustaqilligi va hisobdorligini me'yoriy jihatdan belgilab bergan. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotda «tijorat banklarida ichki audit xizmati» tushunchasining jalb qilingan mablag'lar ustidan mas'uliyat, prudensial tartibga solish, tizimli tavakkalchilik hamda transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlarida investorlar ishonchi kabi xususiyatlarni yanada kengroq qamrab oluvchi ta'rifini ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur holat tushunchani yangi institutsional sharoitlarga muvofiq aniqlashtirishni taqozo etadi, zero nazariy asosning ravshanligi ichki auditni tashkil etish, rejalashtirish va samaradorligini baholashga doir amaliy yechimlarning metodologik poydevorini tashkil qiladi. Maqolaning maqsadi — tijorat banklarida ichki audit xizmatining iqtisodiy mazmunini ochib berish, mavjud ta'riflarni qiyosiy tahlil qilish asosida ularning umumiy belgilari va kamchiliklarini aniqlash hamda bankning o'ziga xosligini ifodalovchi mualliflik ta'rifini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ichki audit evolyutsiyasining bosqichlari o'rganildi, xalqaro va milliy yondashuvlar qiyoslandi, ichki auditning funksiyalari, tamoyillari va «uch chiziq» modelidagi o'zni tahlil etildi hamda taklif etilayotgan ta'rifning amaliy zarurati bank tizimi ko'rsatkichlari misolida dalillandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit nazariyasining fundamental asoslari R.K. Mauts va H.A. Sharafning «Audit falsafasi» asarida yaratilgan bo'lib, unda auditorlik faoliyatining dalillar, xolislik va mustaqillik kabi tayanch kategoriyalari ilk bor tizimli ravishda asoslab berilgan [9]. Zamonaviy ichki audit maktabining shakllanishi esa L.B. Soyev nomi bilan bog'liq: u ichki auditni tashkilotning barcha faoliyatini boshqaruv manfaatida tizimli va xolis baholash sifatida ta'riflab, uning doirasini sof moliyaviy tekshiruvdan operatsion samaradorlikni baholashgacha kengaytirdi [8]. R.R. Myoller va K.H.S. Pikettning fundamental qo'llanmalarida ichki auditning umume'tirof etilgan bilimlar majmuasi, uslubiy vositalari va tashkiliy shakllari batafsil yoritilgan [10; 11].

Institutsional yondashuv doirasida Ichki auditorlar instituti (IIA) qabul qilgan hujjatlar alohida o'rin tutadi. Global standartlarda ichki audit tavakkalchiliklarni boshqarish, nazorat va boshqaruv jarayonlarini baholash hamda takomillashtirishga qaratilgan mustaqil va xolis ta'minot hamda maslahat faoliyati sifatida talqin etilib, uning pirovard vazifasi tashkilot qiymatini yaratish va asrashga bo'lgan ishonchni mustahkamlash bilan bog'langan [5]. IIA tomonidan 2020-yilda yangilangan «Uch chiziq» modeli ichki auditning tashkilotdagi o'zini konseptual jihatdan belgilab berdi [6]. Bank sohasiga xos yondashuv Bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasining «Banklarda ichki audit funksiyasi» hujjatida ifodalangan bo'lib, unda ichki auditning mustaqilligi, vakolatlari, professional salohiyati va faoliyat ko'lamiga doir tamoyillar belgilangan [7].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.D. Andreyev ichki auditni ichki nazorat tizimining mustaqil baholovchi bo'g'ini va mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish vositasi sifatida qaragan [12], V.V. Bursev tijorat tashkilotida ichki nazorat tizimini tashkil etishning uslubiy masalalarini chuqur tadqiq etgan [13], A.M. Sonin esa ichki auditga zamonaviy, tavakkalchilikka yo'naltirilgan yondashuvning mazmunini ochib bergan [14].

Milliy iqtisodiy adabiyotda audit nazariyasi va ichki audit masalalari bir qator olimlarning ishlarida rivojlantirilgan. R.D. Do'smurotov auditning umumnazariy asoslarini tizimlashtirgan [17], N.Sh. Xajimurotov moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlarini asoslagan [18], S.U. Mehmonov budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini tadqiq etgan [19], G.D. Tashmanov ichki audit xizmatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalarini o'rgangan [20], A.N. To'rayev xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini rivojlantirish muammolarini yoritgan [21]. Bevosita bank ichki auditi yo'nalishida N.F. Karimovning monografiyasi [15] hamda A.K. Ibragimovning auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditni tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqoti [16] muhim ilmiy asos yaratgan.

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ichki audit nazariyasi bo'yicha salmoqli ilmiy xazira to'plangan bo'lsa-da, ta'riflarning aksariyati umum korporativ xususiyatga ega bo'lib, bank faoliyatining yuqorida qayd etilgan o'ziga xos jihatlarni to'liq qamrab olmaydi. Bundan tashqari, milliy tadqiqotlarning asosiy qismi Global standartlar kuchga kirgunga qadar bajarilgan bo'lib, ularda standartlarning yangilangan konseptual apparati aks etmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy yo'nalishni rivojlantirishga, tushunchani yangi xalqaro talablar va milliy bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari nuqtayi nazaridan aniqlashtirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, guruhlash, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ta'riflarni qiyoslashda kontent-tahlil elementlari qo'llanilib, har bir ta'rifda urg'u berilgan jihatlar ajratib olindi, umumiy belgilar induktiv yo'l bilan shakllantirildi va mavjud yondashuvlardagi bo'shliqlar deduktiv xulosalar orqali aniqlandi. Ichki auditning bankdagi o'rnini ochib berishda agentlik nazariyasi va «uch chiziq» modeli konseptual asos sifatida xizmat qildi; tarixiy-mantiqiy usul yordamida institutning evolyutsion bosqichlari davriylashtirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini Ichki auditorlar instituti va Bazel qo'mitasining hujjatlari [5–7], O'zbekiston Respublikasining bank faoliyatiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlari [1–4], Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari [22; 23] hamda tijorat banklarining korporativ axborotning yagona portali orqali oshkor etiladigan ustav va hisobotlari [24] tashkil etdi. Xulosalarning ishonchligi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi va qo'llanilgan yondashuvlarning xalqaro amaliyotda e'tirof etilganligi bilan ta'minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt samaradorligi ko'p jihatdan uning nazorat tizimi naqadar ishonchli ekaniga bog'liq. Mulkdor bilan boshqaruv o'rtasidagi funksiyalar ajralgani, faoliyat ko'lami kengaygani va operatsiyalar murakkablashgani sayin tashkilotga boshqaruv qarorlari ijrosini, aktivlarning saqlanishini va hisobotning ishonchligini mustaqil kuzatib boradigan alohida ichki institut zarur bo'lib qoladi. Ichki audit aynan shu ehtiyojdan tug'ilgan bo'lib, mustaqil kasb sifatida 1941-yilda AQShda Ichki auditorlar instituti tashkil etilishi bilan shakllandi. Keyinchalik IIA qabul qilgan ta'rif ichki auditning ikkita tayanch belgisi — mustaqillik va xolislikni hamda ikkita asosiy funksiyasi — ta'minot (assurance) va maslahat (consulting) berishni mustahkamladi [8; 5].

Ilmiy adabiyotda ichki audit evolyutsiyasini shartli ravishda to'rt bosqichga ajratish qabul qilingan. Birinchi bosqichda (XX asrning 40-yillarigacha) ichki audit funksiyalari amalda taftish-tekshiruv faoliyatidan iborat bo'lib, asosiy e'tibor hisob yozuvlarining to'g'riligi va aktivlarning but saqlanishini keyinchalik tekshirishga qaratilgan. Ikkinchi bosqichda (taxminan 1940–1970-yillar) ichki audit muvofiqlik va moliyaviy audit yo'nalishida rivojlandi. Uchinchi bosqich (1970-yillardan asr oxirigacha) tizimga yo'naltirilgan yondashuv bilan tavsiflanadi: e'tibor alohida operatsiyalardan ichki nazorat tizimlarining o'ziga ko'chdi. To'rtinchi bosqich (2000-yillardan hozirga qadar) tavakkalchilikka asoslangan va qiymat yaratuvchi ichki audit bosqichi bo'lib, unda audit rejalari tashkilotning risk-profilidan kelib chiqib tuziladi. 2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozidan keyin ichki auditga qo'yiladigan talablar yanada rivojlandi. Global standartlarning qabul qilinishi, shuningdek, audit faoliyatida ma'lumotlar tahlili va uzluksiz monitoring vositalaridan foydalanish ichki auditning raqamli yo'nalishi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Har bir bosqichda uslubiy arsenal ham boyib bordi: dastlabki davrlardagi hujjatlarni yoppasiga tekshirish o'rnini hozirgi bosqichda tanlanma tekshiruv, risk-baholash va jarayonlarni modellashtirish usullari egalladi.

Ichki auditning global standartlari mazkur evolyutsiyaning hozirgi bosqichini me'yoriy jihatdan rasmiylashtirdi. Standartlar besh domenga birlashtirilgan 15 tamoyil va 52 standartdan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi: birinchi domen ichki auditning maqsadini, ikkinchi domen etika va professionalizm talablarini, uchinchi domen funksiyani boshqaruv organi tomonidan yo'naltirish masalalarini, to'rtinchi domen ichki audit rahbarining funksiyani boshqarish bo'yicha majburiyatlarini, beshinchi domen esa audit xizmatlarini bevosita ko'rsatish jarayonini qamrab oladi [5]. Avvalgi xalqaro kasbiy amaliyot asoslari bilan qiyoslaganda Global standartlarda uchta jihat kuchaytirilgan: boshqaruv organining ichki audit samaradorligi uchun mas'uliyati aniq belgilangan; ichki audit sifatini baholashga doir talablar majburiy xususiyat kasb etgan; texnologiyalardan foydalanish alohida standart darajasiga ko'tarilgan.

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ichki auditning ushbu sohadagi ahamiyatini yanada oshiradi. Birinchidan, banklar asosan jalb qilingan mablag'lar — aholi omonatlari va korxonalar depozitlari hisobiga faoliyat yuritadi, shu bois ulardagi nazorat zaifliklari bevosita uchinchi shaxslar manfaatlariga zarar yetkazadi. Ikkinchidan, bank operatsiyalari yuqori hajmli, ko'p sonli va tezkor bo'lib, xato yoki suiiste'mollikning moliyaviy oqibatlari qisqa muddatda kattalashib ketishi mumkin. Uchinchidan, banklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli alohida bankdagi muammo tizimli tavakkalchilikka aylanish xususiyatiga ega. To'rtinchidan, bank faoliyati qat'iy prudensial tartibga solinadigan soha bo'lib, talablarga rioya etilishini doimiy ichki baholab borish zarurati mavjud. Aynan shu sababli Bazel qo'mitasi banklardagi ichki audit funksiyasiga alohida hujjat bag'ishlagan [7].

Ichki auditning iqtisodiy mazmunini ochib berish uchun unga xalqaro institutlar, milliy me'yoriy hujjatlar va olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

«Ichki audit» tushunchasiga berilgan ta'riflarning qiyosiy tahlili

Manba	Ta'rifning asosiy mazmuni	Urg'u berilgan jihat
Ichki auditorlar instituti (IIA), Global standartlar [5]	Tashkilotning tavakkalchiliklarni boshqarish, nazorat va boshqaruv jarayonlarini baholash va takomillashtirishga qaratilgan mustaqil hamda xolis ta'minot va maslahat faoliyati	Mustaqillik, qiymat yaratish, ikki funktsiya birligi
Bazel qo'mitasi (2012) [7]	Bank ichki nazorat tizimi, tavakkalchiliklarni boshqarish va boshqaruv jarayonlari samaradorligiga mustaqil baho beruvchi «uchinchi himoya chizig'i»	Bank o'ziga xosligi, boshqaruv organi bilan aloqa
3302-son nizom (2021) [3]	Bank ichki nazorat tizimi, shu jumladan tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimining sifati, monandligi va samaradorligiga mustaqil baho berish bilan bog'liq faoliyat	Milliy tartibga solish, kuzatuv kengashiga hisobdorlik
N.F. Karimov, A.K. Ibragimov [15; 16]	Bank ichki audit — xalqaro standartlar asosida tashkil etiladigan, bank boshqaruviga xizmat qiluvchi nazorat-tahlil tizimining tarkibiy elementi	Xalqaro standartlarga tayanish, boshqaruvga xizmat
V.D. Andreyev, V.V. Bursev [12; 13]	Ichki audit — ichki nazorat tizimining mustaqil baholovchi bo'g'ini, mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish vositasi	Ichki nazorat tizimi bilan uzviylik

Manba: ko'rsatilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Keltirilgan ta'riflar tahlili ularda uchta umumiy belgi mavjudligini ko'rsatadi: birinchisi — mustaqillik va xolislik, ya'ni ichki auditning tekshirilayotgan jarayonlardan tashkiliy va funksional jihatdan ajratilganligi; ikkinchisi — faoliyatning baholovchi tabiati, ya'ni ichki audit bevosita boshqaruv qarorlarini qabul qilmaydi, balki ularning asoslari va ijro mexanizmlarini baholaydi; uchinchi — tizimli yondashuv, ya'ni alohida operatsiyalarni emas, balki jarayonlar va tizimlarni qamrab olish. Shu bilan birga, mavjud ta'riflarning aksariyati umumkorporativ xususiyatga ega bo'lib, ularda bank faoliyatining yuqorida qayd etilgan o'ziga xos jihatlari — jalb qilingan mablag'lar ustidan fidutsiar mas'uliyat, prudensial talablar, tizimli tavakkalchilik hamda transformatsiya va xususiyashtirish sharoitidagi investorlar ishonchi omili to'liq aks etmagan.

Yuqoridagi tahlilga tayanib, tadqiqotda «tijorat banklarida ichki audit xizmati» tushunchasiga quyidagi mualliflik yondashuvini taklif etamiz: tijorat banklarida ichki audit xizmati — bank kuzatuv kengashiga (audit qo'mitasi orqali) hisobdor bo'lgan mustaqil tarkibiy bo'linma bo'lib, u tavakkalchilikka asoslangan yondashuv asosida bankning ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv jarayonlarining monandligi hamda samaradorligiga xolis ta'minot beradi va maslahat xizmatlari ko'rsatish orqali bank qiymatini yaratish, asrash va manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga ko'maklashadi. Taklif etilayotgan ta'rifning mavjudlaridan farqi uchta jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, unda hisobdorlik subyekti (audit qo'mitasi orqali kuzatuv kengashi) aniq belgilangan bo'lib, bu mustaqillikning institutsional kafolatini ifodalaydi; ikkinchidan, tavakkalchilikka asoslangan yondashuv ta'rifning tarkibiy elementi sifatida mustahkamlangan; uchinchi, ichki audit faoliyatining pirovard maqsadi bank qiymati va manfaatdor tomonlar — omonatchilar, investorlar hamda nazorat organi — ishonchi kategoriyalari orqali ifodalangan. Mazkur yondashuv milliy bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlarining ehtiyojlarini hisobga oladi.

Ichki auditning iqtisodiy mazmuni uning funksiyalari orqali aniq namoyon bo'ladi. Ta'minot funksiyasi doirasida ichki audit bankning ichki nazorat tizimi, tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonlari, korporativ boshqaruv amaliyoti hamda moliyaviy va boshqaruv hisoboti ishonchililigiga mustaqil baho beradi; ushbu baho kuzatuv kengashi va audit qo'mitasi uchun boshqaruv qarorlarining axborot asosini tashkil etadi. Maslahat funksiyasi doirasida esa ichki audit jarayonlarni takomillashtirish, yangi bank mahsulotlari va axborot tizimlarini joriy etish, transformatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi; bunda u boshqaruv mas'uliyatini o'z zimmasiga olmasligi, ya'ni xolisligini saqlashi shart. Yo'nalganligi nuqtayi nazaridan ichki audit funksiyalarini oldini oluvchi (preventiv), aniqlovchi (detektiv) va yo'naltiruvchi turlarga ajratish mumkin. Bank amaliyotida aynan preventiv funksiyaning ustuvorligi ichki auditni an'anaviy taftishdan ajratib turuvchi asosiy belgidir: taftishda asosan avval amalga oshirilgan operatsiyalar va aniqlangan kamchiliklar o'rganilsa, ichki auditda mavjud tavakkalchiliklarni baholash va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi.

Funksiyalarning samarali bajarilishi bir qator fundamental tamoyillarga rioya etilishini taqozo etadi. Mustaqillik tamoyili bank sharoitida xizmat rahbarini audit qo'mitasining roziligi bilan tayinlash va ozod etish kabi mexanizmlar orqali ta'minlanadi; xolislik tamoyili xulosalarni faqat yetarli va ishonchli dalillarga asoslashni, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikni talab etadi; malaka va professional ehtiyotkorlik tamoyili bank ichki auditorlaridan bank ishi, hisob, axborot texnologiyalari va tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha yetarli bilimga



ega bo'lishni nazarda tutadi; maxfiylik tamoyili bank siri instituti sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi; tizimlilik va uzluksizlik tamoyillari esa auditning bir martalik tadbir emas, balki bankning barcha muhim jarayonlarini davriy ravishda qamrab oluvchi doimiy faoliyat ekanini ifodalaydi.

Ichki auditning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochish uchun uni bankdagi boshqa nazorat institutlari — tashqi audit, taftish va komplayens-nazorat bilan qiyoslash maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval

Ichki audit, tashqi audit, taftish va komplayens-nazoratning qiyosiy tavsifi

Mezon	Ichki audit	Tashqi audit	Taftish	Komplayens-nazorat
Asosiy maqsadi	Ichki nazorat, risk va boshqaruv tizimini baholash va takomillashtirish	Moliyaviy hisobot ishonchligini tasdiqlash	Xato va suiiste'molni aniqlash, aybdorlarni belgilash	Qonunchilik va ichki qoidalarga muvofiqlikni ta'minlash
Buyurtmachisi va hisobdorligi	Kuzatuv kengashi (audit qo'mitasi)	Aksiyadorlar; uchinchi shaxslar manfaati	Yuqori turuvchi rahbariyat	Bank boshqaruvi va kuzatuv kengashi
Davriyligi	Uzluksiz, tavakkalchilikka asoslangan reja bo'yicha	Yiliga bir marta (majburiy)	Davriy yoki hodisa yuz berganda	Joriy, doimiy monitoring
Yo'nalganligi	Kelajakka (preventiv)	O'tgan hisobot davriga	O'tgan davrga (retrospektiv)	Joriy operatsiyalarga
«Uch chiziq» modelidagi o'rni	Uchinchi chiziq	Tizimdan tashqari mustaqil institut	«Uch chiziq» modelida alohida funktsiya sifatida nazarda tutilmagan	Ikkinchi chiziq
Me'yoriy asosi	Global standartlar, 3302-son nizom	Auditning xalqaro standartlari, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik	Idoraviy hujjatlar	Markaziy bank talablari, ichki siyosatlar

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Qiyosiy tahlil ko'rsatadiki, mazkur institutlar bir-birini istisno etmaydi, balki o'zaro to'ldiradi: tashqi audit birinchi navbatda tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotning ishonchligini tasdiqlasa, ichki audit boshqaruv organi uchun butun ichki nazorat tizimining samaradorligini baholaydi; komplayens-nazorat ikkinchi himoya chizig'i sifatida joriy muvofiqlikni ta'minlansa, ichki audit uchinchi chiziq sifatida, shu jumladan, komplayens funksiyasining o'zini ham mustaqil baholaydi. Milliy bank amaliyotida ichki audit institutining shakllanishi aynan taftishdan ichki auditga o'tish jarayoni sifatida kechganini ta'kidlash lozim: huquqiy shaklning o'zgarishi amaliyot mazmunining o'zgarishini avtomatik ravishda ta'minlamaydi, shu bois ilgari shakllangan taftish yondashuvlarini zamonaviy ichki audit tamoyillari bilan bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ichki auditning tashkilotdagi o'rnini tizimli ifodalashda IIA tomonidan ishlab chiqilgan «uch chiziq» modeli umume'tirof etilgan konseptual asos hisoblanadi. Dastlab «uchta himoya chizig'i» nomi bilan tanilgan mazkur model 2020-yilda yangilanib, unda modelning faqat himoyaga emas, balki qiymat yaratishga ham xizmat qilishi, chiziqlar o'rtasidagi hamkorlik va boshqaruv organining markaziy roli alohida ta'kidlandi [6]. Model bo'yicha birinchi chiziqni tavakkalchilikni bevosita qabul qiluvchi biznes va operatsion bo'linmalar, ikkinchi chiziqni tavakkalchiliklarni boshqarish, komplayens va moliyaviy nazorat funksiyalari, uchinchi chiziqni esa birinchi va ikkinchi chiziqlar faoliyatiga mustaqil baho beruvchi ichki audit tashkil etadi.

Bank amaliyotida «uch chiziq» modelining qo'llanilishi bir qator o'ziga xos jihatlarga ega. Birinchidan, Bazil qo'mitasi talablariga ko'ra, uchinchi chiziq sifatidagi ichki audit birinchi va ikkinchi chiziqlardan nafaqat funksional, balki tashkiliy jihatdan ham to'liq ajratilgan bo'lishi, uning rahbari bevosita boshqaruv organiga hisob berishi lozim [7]. Ikkinchidan, banklarda ikkinchi chiziq funksiyalari majburiy tartibda tashkil etilishi talab qilinadi, bu esa ichki auditga ushbu funksiyalarning o'zini baholash vazifasini yuklaydi. Uchinchidan, model tashqi ta'minot beruvchilar — tashqi audit va bank nazorati organi bilan o'zaro hamkorlikni nazarda tutadi: ichki audit natijalari Markaziy bank uchun bankdagi nazorat muhitini baholash manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat bankining korporativ boshqaruv tizimida ichki audit xizmatining o'rni milliy qonunchilikda izchil mustahkamlangan. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, bankda ichki audit xizmatining tashkil etilishi majburiy bo'lib, uning faoliyatini ta'minlash kuzatuv kengashining vakolatiga kiradi [1]. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom kuzatuv kengashi huzurida audit qo'mitasi tuzilishini hamda uning ichki audit xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini belgilaydi [4]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida

3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nizom ichki audit xizmatining mustaqil tarkibiy bo'linma maqomini, kengash va audit qo'mitasiga bevosita bo'ysunishini, bank risk-profilini inobatga olish talabini hamda xodimlarga qo'yiladigan malaka talablarini belgilaydi [3]. Mazkur me'yoriy tartiblar asosida bankda funksional va ma'muriy hisobdorlikni birlashtiruvchi tizim shakllanadi: funksional jihatdan ichki audit xizmati audit qo'mitasi orqali kuzatuv kengashiga bo'ysunsa, ma'muriy-xo'jalik masalalarida bank boshqaruvi bilan hamkorlik qiladi.

Ushbu konstruksiyaning iqtisodiy mazmuni agentlik nazariyasi nuqtayi nazaridan izohlanadi: bankda mulkdorlar, ularning vakillik organi va ijroiya boshqaruv o'rtasida manfaatlar asimmetriyasi mavjud bo'lib, ichki audit manfaatdor tomonlar o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, bankda «mulkdor — boshqaruv» munosabatlaridan tashqari, «omonatchi — bank» va «nazorat organi — bank» munosabatlari ham mavjudki, ichki audit ushbu munosabatlarda ham ishonch vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Banklarning ochiq axborot siyosati doirasida ichki audit xizmatining maqomi, vakolatlari va hisobdorligi bank ustavleri hamda korporativ boshqaruv hisobotlarida aks ettirilib, korporativ axborotning yagona portali orqali oshkor etiladi [23].

Ichki auditning bank uchun yaratadigan iqtisodiy qiymati bir necha kanal orqali namoyon bo'ladi. Birinchi kanal — bevosita yo'qotishlarning oldini olish: nazorat zaifliklarini o'z vaqtida aniqlash firibgarlik, operatsion xatolar va suiiste'molliklar oqibatidagi zararlarni kamaytiradi. Ikkinchi kanal — tavakkalchilik xarajatlarini pasaytirish: ishonchli ichki nazorat muhiti operatsion tavakkalchilik bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarni va tegishli zaxiralar hamda kapital yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi. Uchinchi kanal — tashqi tekshiruvlar samaradorligini oshirish: tashqi auditorlar va nazorat organi ichki audit natijalariga tayangan holda o'z tartib-taomillarini optimallashtiradi. To'rtinchi kanal — investitsion jozibadorlik: xalqaro reyting agentliklari va strategik investorlar bankni baholashda ichki audit funksiyasining yetukligini alohida mezon sifatida ko'rib chiqadi; xususiylashtirishga tayyorlanayotgan banklar uchun bu kanal bevosita narx omiliga aylanadi. Beshinchi kanal — jarayonlar samaradorligi: maslahat funksiyasi doirasidagi tavsiyalar biznes-jarayonlarni soddalashtirish va xarajatlarni qisqartirishga ko'maklashadi. Shunday qilib, ichki auditni faqat xarajatlar bilan bog'liq faoliyat sifatida emas, balki bank qiymatini saqlash va oshirishga ko'maklashuvchi boshqaruv funksiyasi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan yondashuvning amaliy ahamiyatini bank tizimining ko'lami va tavakkalchilik darajasini ifodalovchi so'nggi yillardagi statistik ko'rsatkichlar asosida baholash mumkin (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston bank tizimining ichki audit xizmatiga bo'lgan talabni belgilovchi ayrim ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Davr boshida	Davr oxirida	O'zgarish tavsifi
Bank tizimining jami aktivlari	419 trln so'm (01.01.2022 y.)	962,8 trln so'm (01.05.2026 y.)	2,3 barobardan ziyod o'sish
Muammoli kreditlar (NPL) ulushi	2,1% (01.01.2021 y.)	3,71% (01.06.2026 y.); eng yuqori nuqta — 5,2% (01.01.2022 y.)	Tebranuvchan dinamika

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari [22; 23] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Aktivlar ko'lamining ikki barobardan ziyod o'sishi ichki audit xizmatlari oldidagi audit obyektlari majmuasini mutanosib ravishda kengaytiradi: tekshirilishi lozim bo'lgan operatsiyalar hajmi, filiallar va masofaviy xizmat kanallari soni, axborot tizimlari murakkabligi ortib boradi. Muammoli kreditlar ulushining o'zgaruvchan dinamikasi kredit jarayonidagi ichki nazorat, aktivlar sifatini baholash va erta ogohlantirish mexanizmlarini muntazam takomillashtirib borish zarurligini ko'rsatadi hamda ichki auditning aynan kredit jarayoniga yo'naltirilgan preventiv funksiyasini kuchaytirishni taqozo etadi. Demak, ta'rifda tavakkalchilikka asoslangan yondashuv va bank qiymatini asrash kategoriyalarining mustahkamlanishi amaldagi ehtiyojlarning bevosita nazariy ifodasi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, ichki audit bir asrga yaqin evolyutsiya davomida oddiy hisob tekshiruvidan tavakkalchilikka yo'naltirilgan, tashkilotga qiymat qo'shadigan mustaqil funksiyaga aylandi; 2025-yildan kuchga kirgan Global standartlar ushbu evolyutsiyaning hozirgi — raqamli bosqichini me'yoriy jihatdan rasmiylashtirib, boshqaruv organi mas'uliyati, sifatni baholash majburiyligi va texnologiyalardan foydalanish talablarini kuchaytirdi.

Ikkinchidan, mavjud ta'riflarning qiyosiy tahlili ularda uchta umumiy belgi — mustaqillik va xolislik, faoliyatning baholovchi tabiati hamda tizimli yondashuv mavjudligini ko'rsatdi; ayni paytda ta'riflarning aksariyati



umumkorporativ xususiyatga ega bo'lib, bank faoliyatining fidutsiar mas'uliyat, prudensial tartibga solish, tizimli tavakkalchilik va investorlar ishonchi kabi o'ziga xos jihatlari to'liq aks ettirmaydi.

Uchinchidan, aniqlangan bo'shliqni to'ldirish maqsadida «tijorat banklarida ichki audit xizmati» tushunchasining mualliflik ta'rifi asoslandi. Mazkur ta'rif ichki auditning ta'minot va maslahat funksiyalari birligini, «uch chiziq» modelidagi mustaqil maqomini hamda bank qiymatini himoya qilish va oshirish xususiyatini yaxlit ifodalashi bilan an'anaviy, nazorat-ta'minot funksiyasiga urg'u beruvchi ta'riflardan farq qiladi va milliy bank tizimining transformatsiya hamda xususiylashtirish bosqichidagi ehtiyojlariga mos keladi.

To'rtinchidan, ichki auditning bank korporativ boshqaruvidagi o'rni funksional va ma'muriy hisobdorlikni birlashtiruvchi tizim orqali ifodalanishi hamda agentlik nazariyasi nuqtayi nazaridan manfaatdor tomonlar o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytiruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida izohlanishi ko'rsatildi. Ichki audit yaratadigan iqtisodiy qiymat yo'qotishlarning oldini olish, tavakkalchilik xarajatlarini kamaytirish, tashqi tekshiruvlar samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va jarayonlar samaradorligini yaxshilash orqali namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz: tijorat banklarining ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomlari va ichki audit siyosatlarida taklif etilgan ta'rifda mustahkamlangan elementlar — audit qo'mitasi orqali kuzatuv kengashiga hisobdorlik, tavakkalchilikka asoslangan yondashuv hamda ta'minot va maslahat funksiyalari mutanosibligini aniq aks ettirish; 3302-son nizomni Ichki auditning global standartlarining yangilangan konseptual apparati bilan uyg'unlashtirish yo'nalishida takomillashtirish; banklarning audit qo'mitalari faoliyatida ichki auditni xarajat markazi emas, balki bank qiymatini himoya qiluvchi investitsiya sifatida baholash yondashuvini qaror toptirish. Taklif etilgan ta'rif va yondashuvlar ichki audit xizmatining rivojlanganlik darajasini baholash hamda tavakkalchilikka asoslangan rejalashtirish uslubiyotlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 2019. — 6-noyabr. — 03/19/580/4014-son. <https://lex.uz/docs/-4581969>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2020-yil 12-may, PF-5992-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 2020. — 13-may. — 06/20/5992/0581-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4811025>
3. Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — 2021. — 7-may. — 10/21/3302/0486-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5431666>
4. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/8-son qarori bilan tasdiqlangan; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3254-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 2020. — 30-iyun. — 10/20/3254/1045-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4888804>
5. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, Florida : The Institute of Internal Auditors, 2024. — 119 p. — 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan.
6. The Institute of Internal Auditors. The IIA's Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense. — Lake Mary, Florida : The Institute of Internal Auditors, 2020. — 13 p.
7. Basel Committee on Banking Supervision. The Internal Audit Function in Banks. — Basel : Bank for International Settlements, 2012. — 20 p.
8. Sawyer L. B., Dittenhofer M. A., Scheiner J. H. Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing. — 5th ed. — Altamonte Springs, Florida : The Institute of Internal Auditors, 2003. — 1446 p.
9. Mautz R. K., Sharaf H. A. The Philosophy of Auditing. — Sarasota, Florida : American Accounting Association, 1961. — 299 p.
10. Moeller R. R. Brink's Modern Internal Auditing: A Common Body of Knowledge. — 8th ed. — Hoboken, New Jersey : John Wiley & Sons, 2016. — 832 p.
11. Pickett K. H. S. The Internal Auditing Handbook. — 3rd ed. — Chichester : John Wiley & Sons, 2010. — 1088 p.
12. Андреев В. Д. Внутренний аудит : учебное пособие. — Москва : Финансы и статистика, 2003. — 464 с.
13. Бурцев В. В. Организация системы внутреннего контроля коммерческой организации. — Москва : Экзамен, 2000. — 320 с.
14. Сонин А. М. Внутренний аудит: современный подход. — Москва : Финансы и статистика, 2007. — 64 с.
15. Karimov N. F. Tijorat banklarida ichki audit : monografiya. — Toshkent : Fan, 2006. — 262 b.
16. Xajimuratov N. Sh. Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2021. — 66 b.
17. To'rayev A. N. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2020. — 64 b.
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan tijorat banklari faoliyatining



alohida ko'rsatkichlari: 2026-yil 1-may holatiga [Elektron resurs]. — URL: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/> (murojaat sanasi: 05.07.2026).

19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risidagi ma'lumotlar: 2026-yil 1-iyun holatiga [Elektron resurs]. — URL: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/> (murojaat sanasi: 05.07.2026).
20. Korporativ axborotning yagona portali [Elektron resurs]. — URL: <https://openinfo.uz/uz/> (murojaat sanasi: 05.07.2026).



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100